


## XORIJIY TILLARNI O'RGANISH JARAYONIDA SINONIMLARNING AHAMIYATI



**Shodiyev I.M**

*Navoiy davlat pedagogika instituti  
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti dekani*

**M.T. Gapparova**

*Navoiy davlat pedagogika instituti  
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi*

### Annotation

Ushbu maqolada til o'rganuvchilarining lug'at boyligini kengaytirishda, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida sinonimlarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch tushunchalar:** tilshunoslik, sinonim, sinonomiya hodisasi, sinonomiya, semantika, stilistik bo'yodkorlik, til o'rganuvchilarining lug'at boyligi.

O'zbekiston mustaqil davlatga aylanishi natijasida ta'limganing ahamiyati izchil oshib, u nafaqat iqtisodiyotni, balki butun jamiyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda eng muhim omillardan biriga aylandi. Aynan shuning uchun ham istiqlolning dastlabki yillarda ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilindi.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimiz uchun malakali kadrlar, shu jumladan malakali tarjimonlar, bilimli chet tili o'qituvchilari juda zarur bo'lib qoldi. Shuning uchun "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari uchun yangi milliy dasturlar, darsliklar, uslubiy qo'lanmalarning yangi avlodи yaratildi va yaratilmoqda. Chog'ishtirma tilshunoslik chet tili o'qitishning lingvodidaktik asosini tashkil etadi. Shu sababdan yurtimizda xorijiy tillarni ona tili bilan qiyoslab o'rganish va ularni tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim masalalardan biri.

Bugun jahon jadal rivojlanib kelayotgan bir davrda, biror bir chet tilini o'rganish hayotimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'rganayotgan tilimizni ya'ni ingliz tilini qanday vujudga kelgani, ushbu tildagi so'zlarning qanday ekvalentlari mavjud ekanligini bilish va uni tahlil eta olish juda ahamiyatlidir.

"Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 14-avgustdagи "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish

tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori ta‘lim tizimida yangi davrni boshlab berdi.”<sup>1</sup>

Bundan tashqari, ma’lum bir tildagi so‘zlarni uning ma’nodoshlari bilan bиргаликда о’рганиш har bir til o’рганувчисining lug’ат boyligini yanada oshirib, tilni o’рганиш jarayonidagi qiziqishlarning ortishiga sabab bo’ladi.

Sinonomiya – o’ta murakkab, shu bilan birga o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan lingvistik hodisadir. U ham boshqa lisoniy hodisalar singari turlicha ta’riflangan. Bu ta’riflarni kuzatish aksar holda ilmiy didaktik manbalarda sinonimlarga aynan bir xil ta’rif berilganligini ko’rsatadi. Sinonimlar muammosi hozirgacha jahon tilshunosligida muhim leksikologik muammolardan biri bo’lib qolmoqda.

Sinonimlar tilning lug’aviy jihatdan boylik darajasini ko’rsatib beruvchi o’ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko’p bo’lishi tilning estetik vazifasini yanada to’liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o’рганилган. Yozuvchilar tilimizdagи ma’nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so’zni topib o’z asarlarida qo’llashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko’rsatib berishga intiladilar. “Badiiy matndagi sinonimlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e’tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma’nodosh so’zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbulini tanlash bo’lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma’nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg’un holda qo’llashi masalasiadir.”<sup>2</sup>

Ma’nodosh so‘zlar leksemalarni o’rinsiz takror ishlatishga yo’l qo’ymaydi, badiiy nutq uslubining ravonligini ta’minlaydi, jumlalarning ixcham tuzilishiga keng yo’l ochadi, semalarni o’рганиш jarayonida chuqr fikr yuritishga imkon beradi.

Ma’nodosh so‘zlar badiiy adabiyotda muhim tasvirlash vositalaridan biri hisoblanib, yozuvchi ular yordamida qahramonlarning xarakterxususiyatlarini, voqeа-hodisalarini, manzaralarni, badiiy tasvirlarni aniq, ravshan va jonli qilib ifodalay oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo’ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlilli asoslari. T.: “Fan”, 2006, 45 b
2. Google.uz

<sup>1</sup> Google.uz

<sup>2</sup> Yo’ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlilli asoslari. T.: “Fan”, 2006, 45 b